

**“MUZ YORISH” TEXNOLOGIYASI USULINING TA’LIM JARAYONIDA  
TUTGAN O’RNI**

**Ergasheva Dilzodaxon Axatjon qizi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola “muz yorish” texnologiyasi usuli haqida bo’lib, dars jarayonlarini tashkil etishda uning o’ziga xos hususiyatlarga ega ekanligiga alohida to’xtalib o’tilgan hamda misollar bilan yoritilgan.*

**Kalit so’zlar:** *icebreaking, muz yorish, intervyyu.*

Bugungi kunda ta’lim tizimini isloh etish maqsadida, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqilib amaliyatga keng tafbiq etilmoqda. Zamon talablariga har tomonlama mos keladigan milliy dasturlar, ayniqsa, shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika va texnologiyalar asrida yetakchi zaruriyatga aylangani hech kimga sir emas. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat ko’rsatkichni xalq ta’limi tizimi muammolari oldiga har qachongidan ham muhim bo’ladigan mutaxassis kadrlarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan tayyorlashni yanada takomillashtirish vazifasini qo’ymoqda.[1] Bu esa ayni damda, katta ma’suliyat talab qiladigan vazifa hisoblanib, o’qitish tizimini tubdan isloh etish, yangi, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar saviyasini takomillashtirishni talab etadi.

Ta’lim tizimida so’ngi yillarda xorijiy tillarni o’qitishga alohida e’tibor qaratilayotganligi yosh avlod vakillariga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu o’rinda, albatta, xorijiy til o’qituvchilarining o’rnı beqiyos. Negaki, til o’qitish jarayonida dars samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya usullaridan keng foydalana olish, aynan, o’qituvchining pedagogik mahorati va malakasiga bog’liq. Xorijiy til darslarini olib borishda o’qituvchilar bir qator pedagogik texnologiya usullaridan foydalanadi. Ana shu usullardan biri “muz yorish” (ingliz tilida icebreaking) usuli hisoblanadi.

“Muz yorish” usuli odamlarning o’zaro munosabatlarini yaxshilash, ularni bir-birlari bilan yaqinroq tanishtirish usulidir.[2] Ushbu texnologiya usuli yordamida o’quvchilar o’zlari haqida qisqacha ma’lumot beradi. Bu esa yangi jamoa a’zolarining bir-birlari bilan tanishib olish imkoniyatini yuzaga keltirib, talabalar diqqatini jamlashga, bir-birlari haqida ma’lum tasavvurga ega bo’lishiga, xorijiy tilda fikr yuritish hamda amalda qo’llashga keng zamin yaratadi. O’qituvchi dastlab na’muna sifatida o’zini quyidagicha tanishtiradi:

My name is Aziza. My surname is Axmedova. I am from Tashkent. I am an English teacher. My hobby is reading books. Shundan keyin o’qituvchi talabalardan biriga murojat qilib, What is your name?, Where are you from?, What do you do?, What is your hobby? kabi savollarni beradi. Savollarga javob bergen talaba yonidagi

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

talabaga yuqoridagi savollar ketma ketligini beradi va o'zi yana birorta savol qo'shimcha qilishi ham mumkin bo'ladi. Masalan, How old are you?, What is your favorite color?, Do you like pets?.

"Muz yorish" usuli uchun ko'p vaqt sarflanmaydi. Faqatgina ikki yoki uch daqiqa vaqt ajratiladi. Talabalarga bir-birlari haqida to'liq ma'lumot olish uchun qulay sharoit yaratiladi.[3] Asosiy maqsad, talabalar va o'qituvchi bir-birlari bilan tanishib olishi hamda yangi jamoa tarkibi haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lisdirdi.

"Muz yorish" texnologiyasi intervyu shaklida ham olib borilishi mumkin. Bunda talabalar juft-juft bo'lib, ishlashlari lozim bo'ladi. Dastlab o'qituvchi talabalarga nomer tarqatadi va ular doira shaklida joylashtiriladi. Masalan 1 raqami berilgan talaba 2 raqami berilgan talaba bilan 3 minut davomida intervyu o'tqazadi. Keyin talabalar doira shaklida harakatlanib, intervyuni davom ettiradilar. Shunday qilib barcha talabalar bir birlari bilan tanishib olish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, xorijiy tilda so'zlashish mulkni ham yaratiladi. O'qituvchi talabalar o'rtaida olib borilgan intervyu jarayonini kuzatib borish davomida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarga alohida to'xtab o'tadi. Gramatik va talaffuzdagi kamchiliklar ustida taxliliy fikrlar bildiriladi.

O'qitish jarayonida "muz yorish"ning "quvnoq daqiqa" deb nomlangan usuli ham mavjud. Undan, asosan, o'quvchilar charchagan vaqtida qo'llaniladi. Bu jarayonda barcha o'quvchilar qatnashishi lozim bo'ladi. Qiziqarli savollar bilan olib boriladigan "Quvnoq daqiqa" o'quvchilarni til o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttiradi va do'stona munosabat o'rnatilishini ta'minlaydi. Bu esa o'z ornida dars samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning xorijiy tilda gapirish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib ayganda, bugungi kun yoshlari ertangi kunning asosi. Ularning jamiyatda o'z orniga ega bo'lishlari, o'z fikrin mustaqil bayon etishlari, birgalikda bir kuch ekanligini anglab yetishi uchun keng imkoniyatlar eshigi ochiqligi ko'p jihatdan ta'lim dargohlarida beriladigan bilim hamda tarbiya bilan bog'liq. Dars jarayonlarida o'quvchilarning qiziqishi va e'tiborini kuchaytirishga qo'llaniladigan juda ko'p pedagogik texnologiya usullaridan biri bo'lgan "muz yorish" usuli o'ziga xos hususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Muz yorish usuli turli joylardan kelgan talabalarni bir-birlari bilan tanishib bir jamoa bo'lib ishlashiga katta zamin yaratadi. Bu esa o'z navbatida, ham ta'limiy, ham, tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. Ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi esa, o'quvchiga bilim berishdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiya. Toshkent 2013. B.34
2. Sapayeva D. N. Ingliz tili darslarida muz yorish texnologiyasini qo'llash usuli. Filologiya masalalari yoshlar talqinida (v Respublika yosh olimlar ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami) B. 336-339
3. Lutfullayev M., Abdug'aniyeva Sh. English in topics and some jokes. Toshkent 2008. B. 67.
4. Tojaliyevich, A. B., Ortikovich, U. A., & Saydaliyevich, U. S. (2022). BASIC AND PROFESSIONAL CRITERIA FOR PREPARING THE SPECIAL STUDY PERSONNEL. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(7), 79-82.
5. Baxodir, P., Baxriddin, A., Ilhomjon, T., & Arabboy, Y. (2022). The Concept of Patriotism in The Mind of Youth. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 5, 82-83.
6. Tojaliyevich, A. B. (2022). Raise the awareness of military personnel about combat and combat readiness.
7. Абдуллаев, Б. Т. (2023). ИНСОН ТАНАСИНИ ЧИДАМЛИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 85-89.
8. Абдуллаев, Б. Т. (2023). ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРVARЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШГА КАРАТИЛГАН ИЖТИМОЙ ЙЎНАЛИШЛАР. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(1), 109-113.